

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan "Yangi O'zbekiston" universiteti talabalarning AQSHdagi amaliyot xarajatlari qoplab berildi

// 19.09.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tomonidan-yangi-o-zbekiston-universiteti-talabalarning-aqshdagi-amaliyot-xarajatlari-qoplab-berildi>

New
Uzbekistan
University



XORIJIY AMALIYOT

AQSH | University of Texas at Dallas



Jakhongir
Bakirov



Malikabonu
Sobirova



Muzaffarbek
Mamadiyev



Nargis
Kholmamatova



Azimjon
Jamolov

"Yangi O'zbekiston" universitetining Kimyo va materialshunoslik muhandisligi yo'nalishida tahsil olayotgan 5 nafar talaba AQSHning Dallasdagi Texas universitetiga 4 haftalik qisqa amaliyotga yuborildi.

Ushbu amaliyot dasturi "O'zkiyosanoat" AJ hamda Dallasdagi Texas universiteti materialshunoslik yo'nalishi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, talabalarning amaliyot bilan bog'liq xarajatlari "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan qoplab berildi.

Amaliyot davomida o'zbekistonlik yoshlar universitet professorlari va talabalari bilan fikr va tajriba almashish, shuningdek o'z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Qolaversa, amaliyotdan so'ng ushbu talabalar bilan "O'zkiyosanoat" AJda uchrashuv tashkil etish ko'zda tutilgan.

"O'zkiyosanoat" AJ ilmga intiluvchan yoshlarni doim qo'llab-quvvatlaydi.